


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**




**BADIIY ASAR TAHLILI METODLARI
FANINING O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 200000 – San’at va gumanitar fanlar
Ta’lim sohasi: 230 000 - Tillar
Ta’lim yo’nalishi: 70230104 – Adabiyotshunoslik (sharq tillari bo‘yicha)

Toshkent–2025

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti direktori:  Mirzaxmedova X.V.

Arabshunoslik oliy maktabi boshlig'i:  Bultakov I.Yu.

ARM boshlig'i:  Yuldasheva M.M.

Fan/modul kodi BATMI104		O'quv yili 2025/2026	Semestr 1	ECTS — Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	Badiiy asar tahlili metodlari	48	72	120	
2.	<p style="text-align: center;">I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanning maqsadi: magistrantlarda badiiy asar tahlilining prinsiplari va usullari bilan tanishtirishga, badiiy asarni yaxlitlikda komponentlarini o'rganib chiqib estetik qimmatini aniqlashga va tahlilda ayni o'sha komponentlarni o'zaro bog'liq, o'zaro ta'sir va o'zaro shartlanganlik kabi o'ziga xos tamoyillar bilan tanishtiradi.</p> <p>Ushbu maqsadga erishish uchun fan magistrnlarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, adabiy hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.</p> <p>Fanning vazifasi: magistrantlarga badiiy asarning tahlil metodlari, tahlil usullari, badiiy tahlil maktablari, badiiy tahlil prinsiplari, badiiy asar tahlili va talqini, tahlil va talqin tushunchalari, badiiy tahlil ob'ekti va predmeti bilimlarni kabilar to'g'risida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish.</p> <p>Xorij tajribasiga muvofiqligi:</p> <p>Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi Qatar University (QS 121, THE 220) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi.</p> <p>https://www.qu.edu.qa/siteimages/static_file/qu/colleges/cas/documents/studyplan/%D8%A7%D9%84%D8%AE%D8%B7%D8%A9%20%D8%A7%D9%84%D8%AF%D8%B1%D8%A7%D8%B3%D9%8A%D8%A9.pdf</p> <p style="text-align: center;">II. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p style="text-align: center;">II.1. Nazariy mashg'ulotlar bo'yicha mavzular</p> <p style="text-align: center;">1-mavzu. "Badiiy tahlil asoslari" fan sifatida</p> <p>«Badiiy tahlil asoslari» kursining maqsadi filolog mutaxassislarni badiiy asar bilan professional darajada ishlashga o'rgatishdan iboratdir. Badiiy asarlarni tahlil qilish borasida Yetarli malakaga ega bo'laslik oliy filologik ta'limni samarasiz qiladi.</p>				

2-mavzu. Badiiy asar va unga xos xususiyatlar

Badiiy asar ma'lum hissiy va fikriy mazmun hamda qarashlarning obrazli va estetik qimmatga ega yo'sindagi ifodasidir. Ijodkor shaxsining behad sub'ektivligi, uning olamni ko'rish va u haqda fikr yuritish usullarining betakrorligi badiiy aks ettirish tushunchasini g'oyat murakkab hodisaga aylantirib yuboradi. Shunday qilib, badiiy asarni borliqning shunchaki aks ettirilib qolmay, balki muayyan darajada ijodiy o'zgartirilib ham yuboriladigan individual va faol in'ikosidir deyish mumkin.

مناهج النقد الأدبي الحديث Zamonaviy adabiy tanqidchilikning metodlari

3-mavzu. Badiiy asar tahlili tamoyillari

Badiiy asarni to'laroq anglash va chuqurroq tahlil qilish uchun uni ilmiy tekshirishning uch bosqichi bosib o'tilishi zarur. Asarning tahlil kechimi a) boshlang'ich idrok darajasida asarni butunisicha anglash; b) keyin uni unsurlari bo'yicha sinchiklab tahlil (analiz) qilish; v) ilmiy tadqiqot natijalarini tizimli yo'sinda umumlashtirish, ya'ni sintezlash singari bosqichlardan iborat bo'ladi.

مناهج النقد الأدبي الحديث Zamonaviy adabiy tanqidchilikning metodlari

4-mavzu. Badiiy tahlilda shakl va mazmun munosabati

Badiiy asar tahlilida shakl va mazmun birligi hamda ularning o'zaro munosabati masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Negaki, tahlilga tortilgan har qanday badiiy asardan muayyan badiiy mazmun kutilganidek, estetik mazmunki bor biror badiiy shaklda ifoda etilishi muqarrardir. Ma'lumki, shakl va mazmun tushunchalari, ularning o'zaro munosabatlari, oralaridagi bog'liqlik muammolariga falsafaning eng muhim masalalaridan biri sifatida qaraladi. Badiiy asarlarning ilmiy tahlili jarayonida shakl va mazmun munosabati muammosi esa estetik planda qo'yiladi.

5-mavzu. Interpretasiya va hermenevtika

Interpretatsiya ilohiy va badiiy matnni o'rganish hamda izohlashga tatbiqan antik davrlardan buyon qo'llanib kelingan yondashuv tarzi bo'lib, "talqin qilish, tushuntirish" ma'nolaridagi lotincha *interpretatio* so'zidan olinib, badiiy asarni talqin qilish, uning g'oyasi, ma'nosi yoki konsepsiyasini anglab yetishga, asar mazmunini qayta yaratishga qartilgan faoliyatni bildirgan. Badiiy asarning ilmiy tahlilida *hermenevtik* yondashuv ham katta o'rin tutadi. Hermenevtika atamasi *hermeneuo* – "sharhlayman", "tushuntiraman", "talqin qilaman" ma'nolarini anglatuvchi yunoncha so'zdan olingan.

6-mavzu. Tarixiy funksional tahlil maktabi.

Badiiy adabiyotni tarixiy-funksional planda o'rganish filologik tahlilning keng yoyilgan yo'nalishi bo'lib, unda badiiy matn kitobxon ongi va tuyg'ulariga ko'rsatgan ta'sir bosqichlari, adabiy asarning o'qirman ongidagi «variantlar»ning tarixiy dinamikasi, uning matni bilan turli davrlarda tanishgan kitobxonlar tasavvurida qoldirgan turlicha izlarining tarixini tadqiq etish ko'zda tutiladi.

7-mavzu. Tarixiy tipologik va qiyosiy tarixiy maktablar

Badiiy matnni o'rganishga doir ilmiy-tahliliy yondashuvlar orasida *tarixiy-tipologik nazariya* bergan mahsuli va keltirib chiqargan oqibatlariga ko'ra, alohida

o‘rin tutadi. Ko‘proq xalq og‘zaki ijodi namunalarini tekshirishga nisbatan qo‘llaniladigan bu tahlil yo‘nalishiga muvofiq folklor asarlarini alohida iste‘dodlar tomonidan yaratilgan badiiy butunlik sifatida emas, balki ijtimoiy-tarixiy jarayon rivoji natijasida o‘z-o‘zidan tabiiy ravishda kelib chiqadigan estetik yaratq tarzida izohlash kerak deb qaraladi.

8-mavzu. Badiiy asarning struktural tahlili

Badiiy tahlil asosli va puxta bo‘lishi uchun tekshirilayotgan har bir asarning tabiatidan kelib chiqib, uning o‘zigagina tatbiq etish mumkin bo‘lgan qat‘iy ilmiy tartibga rioya qilgan holda ish tutish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Tajriba ko‘rsatadiki, tahlilni so‘zdan obrazga, obrazdan ifodaga, ifodadan fikrga tartibida amalga oshirish yaxshi samara beradi. Badiiy tahlilning barcha bosqichlarida matn mohiyatini anglab Yetish bilan birga ko‘rkam so‘zning estetik jozibasini ochish diqqat markazida tutilishi lozim.

9-mavzu. Badiiy asarni adabiy tur va janrlar nuqtai nazaridan tahlili

Badiiy asarning tahlili muvaffaqiyatli chiqishida tekshirilayotgan asarning qaysi adabiy turga mansubligini hisobga olish ham o‘ziga xos o‘rin tutadi. Chuqurroq diqqat qilinsa, adabiy tur tushunchasining mohiyatida tahlilning kaliti yotganligi ko‘zga tashlanadi. Negaki, adabiy tur va janr xususiyatlari badiiy asar tabiatiga xos asosiy jihatlarni belgilaydi. Badiiy tahlil esa aynan muayyan adabiy asarning tabiatiga xos qirralarni tadqiq etish demakdir. **حليل النص والخطاب** Matn va nutq tahlili.

10-mavzu. Asarni estetik reallik va badiiy butunlik sifatida tahlili

Badiiy bitik mazmunining asl mohiyati muayyan asarda *tasvirlangan olam, badiiy nutq, kompozitsiya va syujet* singari tarkibiy qismlardan iborat shakl unsurlari birligida namoyon bo‘ladi. Tahlil amaliyoti uchun adabiy asarni tekshirishni shu unsurlarning qaysi biridan boshlashning unchalik farqi yo‘q. Negaki, bu unsurlar o‘zaro chambarchas bog‘liq va ular birgalikdagina badiiy shaklning g‘oyat muhim va qimmatli estetik xususiyatini yuzaga chiqaradi.

11-mavzu. Badiiy tahlil tamoyillari

Badiiy asarni ilmiy tadqiq qilishning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, adabiy asarni tekshirishga qaratilgan ushbu ilmiy-estetik jarayonni *adabiy asardagi tasvirning yaratilgan hamda o‘rganilayotgan paytdagi badiiy va hayotiy mantig‘i hamda estetik o‘ziga xosligini anglashga qaratilgan intellektual-hissiy faoliyat ilmiy (filologik) tahlil* deyiladi tarzida ta‘riflash mumkin. **نظريات الأدب** Adabiyot nazariyasi

12-mavzu. Badiiy tahlil usullari

Badiiy asarning ilmiy tahlilida tekshirilayotgan asarning turi va janriga xos xususiyatlaridan tashqari, boshqa bir qator omillar ham borki, bularni hisobga olish tahlilning saviyasini oshirib, asardan kelib chiqadigan ma‘noni kuchaytirishga xizmat qiladi. **تحليل النص والخطاب** Matn va nutq tahlili.

III. AMALIY MASHG'ULOTLAR BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR

Amaliy mashg'ulotlarda magistrantlar "Badiiy asar tahlili metodlari" fanidan ma'ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, amaliy mashg'ulotlar mavzulari bo'yicha tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'shimcha adabiyotlar va tarixiy manbalar bilan tanishish orqali qo'shimcha bilim va xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Natijada ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

"Badiiy asar tahlili metodlari" fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlarga tavsiya etiladigan mavzular:

- 1-mavzu: Mavzu va muammoning tahlil yo'nalishini belgilashfagi o'zni.
- 2-mavzu: Badiiy tahlilda dunyoqarash va milliy mansublikni xisobga olish
- 3-mavzu: Badiiy tahlilda tasviriy unsurlar uyg'unligi.
- 4-mavzu: Germenevtika asosida tahlil fanlari rivoji. **مناهج النقد الأدبي الحديث**
- 5-mavzu: Qiyosiy-tarixiy tahlil namunasi. **المقارنة والأدب الأجنبي** Xorijiy adabiyot va qiyosiy adabiyotshunoslik.
- 6-mavzu: Biografik tahlil namunasi.
- 7-mavzu: Badiiy asarda tasviriy unsurlar uyg'unligini hisobga olish.
- 8-mavzu: Lirik asarlar tahlilining o'ziga xosligi.
- 9-mavzu: Epik asarlar tahlilining o'ziga xosligi.
- 10-mavzu: Dramatik asarlar tahlilining o'ziga xosligi.
- 11-mavzu: Modern asar tahlil qilish yo'llari.
- 12-mavzu: Postmodern asar tahlil qilish yo'llari

IV. Mustaqil ta'lim*

III.1. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

1. Badiiy asarda xronotop masalasi
2. Badiiy psixologizm
3. Badiiy asar strukturasi va intertekst
4. **حليل النص والخطاب** Matn va nutq tahlili.
5. Badiiy asarda avtor va qahramon masalasi
6. Badiiy asar retseptsiyasi
7. Poetika masalasi
8. **الرسالة** Tezis yozish san'ati
9. Inson tasvirida milliy-tarixiy aspektlar.

Mustaqil ta'limni tashkil etishda fanning xususiyatini inobatga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- mavzu yuzasidan tahliliy ma'lumot (esse) tayyorlash;
- badiiy-ijodiy ishni bajarish;

	<ul style="list-style-type: none"> - kurs ishi (loyihasi)ni bajarish; - aniq mavzu bo'yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash; - berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta'rif va xulosalarni berish; - amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko'nikmasini shakllantirish; - ilmiy maqola, tezislari va ma'ruza tayyorlash;
3.	<p>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) <i>"Badiiy asar tahlili metodlari" fanini o'zlashtirish natijasida magistrant:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> • Badiiy asar tahlili metodlari fani bilan tanishtirish, ularni badiiy asar bilan ishlashga, undagi nazariy masalalar tasavvurga ega bo'lishi; • Badiiy asar tahlili metodlari tahlil qonuniyatlarini bilishi va ulardan foydalana olishi.
4.	<p>VI. TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • jamoa bo'lib ishlash.
5.	<p>VI. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, mustaqil ta'lim bo'yicha hamda joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ish va/yoki og'zaki imtihonni topshirish.</p>
6.	<p>VIII. ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI</p> <p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – T.:Bookmany print, 2022. – 251 b. 2. Rasulov A. Badiiylik bezavol yangilik. – T. 2007. – 337 b. 3. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. – Тошкент: Ўзбекистон, 2024. 2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. 3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.

	<p>4. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.</p> <p>5. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.:O‘zbekiston, 2002.</p> <p>6. Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: Universitet. 2005.</p> <p style="text-align: center;">Scopusdan maqolalar</p> <p>7. Dr. Dilafruz. Z.Mukhiddinova and Dr. Nargiza M.Saidova. (2023) Characteristics of the Shortest Story Genre in Modern Arabic Literature. 695-701. https://spast.org/techrep/article/view/5025</p> <p style="text-align: center;">Axborot manbalari</p> <p>8. http://www.ziyo.net</p> <p>9. http://www.maphistory.info/</p> <p>10. http://www.history.ru</p> <p>11. http://academic.emporia.edu/aberjame/map/h_map/h_map.htm</p>
7.	<p>Fanning o‘quv dasturi “Arabshunoslik” oliy maktabida ishlab chiqilgan va 2025 yil “28” 06 dagi 22 -sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.</p> <p>O‘quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025 yil “28” 06 dagi 11 — sonli bayoni bilan tasdiqlangan.</p>
8.	<p>Fan/modul uchun mas’ul:</p> <p>D.Z.Muxiddinova - TDSHU “Arabshunoslik” oliy maktabi dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha fan doktori (DSc).</p>
9.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>Turdiyeva O.Z.– TDSHU “Eronshunoslik-afg‘onshunoslik” oliy maktabi dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha fan doktori.</p> <p>Tilavov A. – A.Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.</p>